



**HUQUQBUZARLIKLER PROFILAKTIKASI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISHDA “SMART MAHALLA” MOBIL AXBOROT TIZIMI TUSHUNCHA**

**Boboraximov Abror Baxramovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy ta'lindan keyingi ta'lim fakulteti mustaqil  
izlanuvchisi*

**Amonova Zebogul Ulug'bek qizi**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-bosqich kursanti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususan, mamlakatimizdagi fuqarolarni glaballashuv sharoitida tez o'zgaruvchanlik va ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lgan "Smart mahalla" mobil axborot tizimidan foydalanishda muammo va ularning echimlarini ilmiy asosda o'rganish, mahallaning xalq va davlat bilan o'rta sidagi tezkor munosabati.

**Kalit so'zlar:** "Smart mahalla", mobil axborot tizimi, texnologik echimlar, infratuzilmalar, "Mening hujjatlarim" yo'l-transport hodisalari, ma'muriy huquqbuzarliklar, jinoyatlar, qidiruvdagi va bedarak yo'qolgan shaxslar, "Smart maxalla" axborot tizimini o'ziga xos xususiyatlari.

Ijtimoiy turmush sharoitida insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni muayyan to'siq va muammolarni bartaraf etish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu esa butun dunyo mamlakatlari uchun o'ziga yarasha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Shu jumladan, mazkur muammolar mamlakat iqtisodiyotida ham kutilmagan xarajatlarga olib keladi. Ammo bir narsani tan olishimiz kerakki, mavjud muammolar biz uchun qaysidir sohalardan ortda qolib ketayotganimizni ham ko'rsatib beradi. Xususan 2020-2022 yillar oralig'ida O'zbekistonda masofadan turib, elektron tarzda ishlash tizimiga o'tish ishlariga katta e'tibor qaratila boshlandi. Masofadan turib elektron xizmatlarni ko'rsatish, elektron to'lovlar kabi ishlar shular, jumlasidandir. Aholiga qulayliklar yaratish maqsadidagi mana shunday ishlardan yana biri bu – "Aqli mahalla" mobil ilovasidir.<sup>5</sup>

Mamlakatimizdagi keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.<sup>6</sup>

"Aqli mahalla" – hayot sifatini yaxshilash, qulaylik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, shahar va aholi xarajatlarini optimallashtirish maqsadida mavjud infratuzilmaga ilg'or "Aqli shahar" texnologiyalarini joriy etishdir.

"Aqli mahalla" texnologik yechimlarini joriy etish quyidagilarni nazarda tutadi:

<sup>5</sup> Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси самарадорлигини оширишда "Smart mahalla" mobil axborot tizimidan foydalaniishi takomillashtiriш: Ўқув қўлланма. / Масъул муҳаррир: Т.Б.Маматқулов, Қ.А.Сайтқулов, Б.Ф.Алимов, А.Б.Боборахимов, А.Р.Абдуғофаров, Қ.М.Очилов., – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 19.08.2023й. – 56 б

<sup>6</sup> Боборахимов А., Қавомов А. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида "Ижтимоий профилактика" тушунчаси ва уни амалга оширишдаги чоратабдирлар тизими //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 34-38.



qo'ng'iroq qilish va taksi haqini to'lash bo'yicha Internet xizmatlarining uzluksiz ishlashi;

onlayn trafikni kuzatish imkoniyati;

elektr transport vositalari uchun yoqilg'i quyish shoxobchalari tarmog'ining mavjudligi;

avtomobil almashish xizmati;

faolligi va internet foydalanuvchilari soni;

talabalarning elektron kartalaridan foydalanish;

mehnat bozori ma'lumotlarining mavjudligi;

chiqindilarni ruxsatsiz utilizatsiya qilish oqibatlarini bartaraf etishda jamoatchilik ishtiroti.

Ta'kidlash joizki, "Smart City" texnologiyalarini joriy etishdan maqsad:

a) transport texnologiyalari hamda ulardan aholini foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali qulayliklar yaratish hamda bu sohani rivojlantirish;

B) ta'lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llashni jadallashtirish hamda sifatini oshirish;

V) tibbiyot sohasini isloh etish hamda aholining sog'ligini masofadan turib nazorat qilish, tashxis qo'yish, davolash va tibbiy maslahatlar berish mexanizmlarini texnologiyalashtirish;

g) barqaror, tejamkor va ishonchli energiya tizimi integratsiya qilish hamda muvofiqlashtirish;

d) suv ta'minotini onlayn gidravlik modellar, avtomatlashtirilgan suv olish, oqava suvlarni utilizatsiya qilish va tarqatish, xavfsizlik va nazorat qilish tizimlari, bo'ron oqimini boshqarish va suv toshqini haqida ogohlantirish tizimlarini birlashtirish orqali avtomatlashtirilgan qochqinlarni aniqlash asosida boshqarishni takomillashtirish;;

e) iste'molchilarining manfaatlari va texnologiya rivojlantiradigan barqaror va tejamkor uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish tizimini yaratish orqali unda communal resurslar va xizmatlarni aqli hisobga olish, monitoring va nazorat qilish va iste'mol qilish hamda hisobga olinadigan xizmat orqali muvofiqlashtirish;

i) qurilish sohasidagi innovatsion texnologiya obyektini yaratish, o'zgartirish yoki buzish bilan bog'liq tashkiliy, qidiruv, loyihalash, qurilish-montaj va ishga tushirish ishlarini jadallashtirish;

k) qurilish tizimini zamonaviy mexanizmlarini joriy etish orqali bu sohani takomillashtirish;

l) uydagi barcha kommunikatsiyalarini sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan, uy egasining ehtiyojlari va istaklari asosida dasturlashtiriladigan va sozlanishi mumkin bo'lgan bittaga birlashtirish imkonini beruvchi aqli boshqaruv tizimi joriy etish;

m) aholini o'ylantirayotgan dolzarb masalalar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlariga tegishli takliflarni ishlab chiqish va taqdim etish;

o) hayot sifatini yaxshilash, qulaylik va xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, shahar va aholi xarajatlarini optimallashtirish maqsadida mavjud infratuzilmaga ilg'or "Aqli shahar"



texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan innovatsion yechim va tizimlarni joriy etishdan iborat.

O‘zbekiston xalqining milliy istiqlol g‘oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi, bu esa o‘z navbatida mahallaning rolini ko‘rsatib beradi va inkor eti bo‘lmaydigan haqiqatdir.<sup>7</sup>

“Smart mahalla” mobil axborot tizimidan foydalanishda muammo va ularning yechimlarini ilmiy asosda o‘rganish va tasniflash natijalariga asoslanmasdan ularga nisbatan manzilli va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqib hamda amalga oshirib bo‘lmaydi. “Smart mahalla” mobil axborot tizimidan foydalanishda muammolarini o‘rganish, birinchidan, dasturdan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarda yuzaga keladigan jarayonlarni kuzatish, ikkinchidan, aholining mobil axborot tizimidan foydalanish ko‘nikmasining shakllanganlik darajasini o‘rganish, uchinchidan, axborot texnologiyalari sohasidagi to‘siqlarni o‘z vaqtida aniqlab bartaraf etishga qaratiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “Smart mahalla” mobil axborot tizimidan foydalanishni samarali tashkil etish mazkur faoliyatni nazariy, tashkiliy, huquqiy va metodik jihatdan tizimli ravishda ta‘minlab borishni talab qiladi. Mazkur jarayonlar bir-biri bilan aloqadorlikda rivojlanadi, shuningdek ularning birida vujudga kelgan muammolar, albatta, boshqalarida ham muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa o‘z vaqtida mazkur masalalarni kompleks tadqiq etishni va aniqlangan muammolarni bir vaqtda hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirilishi zarurligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari amaliyot tahlillari “Smart mahalla” mobil axborot tizimi faoliyatida quyidagi muammolar ko‘zga tashlanayotganligini ko‘rsatmoqda.

Xususan:

-“Smart mahalla” mobil axborot tizimini respublikamizning barcha hududlarida ishga tushirish hamda samarali ishlashini ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlar yetarli emas;

- “Smart mahalla” mobil axborot tizimi dizaynnini takomillashtirish zarurati mavjud, chunki bu boradagi e‘tirozlar fuqarolarimiz tomonidan ijtimoiy tarmoqlar orqali ham bildirilmoqda;

- tizimga kirish va avtorizatsiya bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, tizimga kirishda yo‘riqnomalar bo‘lishi lozimligini taqozo etmoqda;

- yozuvlar bilan bog‘liq bir qator xatoliklar mavjud bo‘lib, bu boradagi kamchiliklar bartaraf etilayotgan bo‘lsada, muntazam ravishda tuzatishlar kiritib borishni taqozo etmoqda;

- NFC orqali “Mening hujjalarnim” bo‘limiga hujjalarni qo‘sish funksiyasi yaxshilash zarurati vujudga kelgan;

- internetning ishlash tezligi nisbatan sustroq;

-“Smart mahalla” mobil axborot tizimi bilan ishlash bo‘yicha aholining ishlash ko‘nikmasi yetarli emas;

- “Smart mahalla” mobil axborot tizimi bilan ishlash bo‘yicha aholining ishlash ko‘nikmasi shakllantirish qaratilgan maxsus elektron o‘quv-uslubiy qo’llanmalar yetarli emas. Metodik ta‘minlashning mohiyati muayyan faoliyatni, uni boshqarishni samarali

<sup>7</sup> Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари ва фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳамкорлигини “Хавфсиз маҳалла” тамоилии асосида самарали ташкил этиш механизмлари //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 99-107.



tashkil etishga xizmat qiluvchi tavsiyalar, qo'llanmalar yoki boshqa shakllarda amalda foydalanish uchun yetkazib berishda namoyon bo'ladi. Faoliyatni metodik ta'minlashning yana bir jihatni uning xodimlar kasbiy tayyorgarligini oshirib borishga xizmat qilishidadir.

Endilikda mazkur ilovani real vaqt rejimida tizimli, tezkor ishlashini taqozo etadi. Yo'qsa, qancha yangiliklar yaratilmas, aholining og'irini yengil, mushkulini oson qilib bo'lmaydi, natijada amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar samarasiz bo'lib qoladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish "Smart mahalla" mobil axborot tizimi faoliyatining samaradorligini oshirishga shuningdek, huquqbazarliklar profilaktikasi yo'naliishi bo'yicha sifat jihatdan samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Mahallalarda huquqbazarliklarning barvaqt profilaktikasini tashkil etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Xususan, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishda "fuqarobay", "oilabay" va "mahallabay" ishlash orqali huquqbazarliklarning ijtimoiy profilaktikasini ta'minlash amaliyoti joriy etildi. "Xavfsiz mahalla" va "Xavfsiz hudud" tamoyillari asosida ichki ishlar organlarining Milliy gvardiya va mahalla jamoatchiligi bilan hamkorlikdagi ishlari qisqa vaqt ichida o'zining ijobiy natijasini berayotgani biz uchun katta ahamiyatga ega.<sup>8</sup>

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, -"Smart mahalla" mobil axborot tizimi aholini mahalladagi, qonunchilikdagi va boshqa yangiliklardan xabardor qilish, ular tomonidan profilaktika inspektori va mahalla raislarining ishini baholashni, shuningdek, hududda sodir qilingan jinoyat va huquqbazarliklar bo'yicha jamoatchilik fikrini bilish va uni tahlil qilishni nazarda tutgan zamonaviy milliy dastur desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishda "Smart mahalla" mobil axborot tizimidan foydalanishni takomillashtirish: O'quv qo'llanma. / Mas'ul muharrir: T.B.Mamatqulov, Q.A.Saitqulov., B.F.Alimov, A.B.Boboraximov, A.R.Abdug'ofarov, Q.M.Ochilov., . – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 19.08.2023y. – 56 B.
2. Boboraximov A. B. Ichki ishlar organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamkorligini "Xavfsiz mahalla" tamoyili asosida samarali tashkil etish mexanizmlari //Journal of new century innovations. – 2022. – T. 19. – №. 1. – S. 99-107.
3. Boboraximov A. B. Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining "surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka mutbalo bo'lgan shaxslar" ni majburiy davolashga yuborish faoliyati //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 23. – S. 334-338.
4. Boboraximov A., Qavomov A. Huquqbazarliklar profilaktikasida "Ijtimoiy profilaktika" tushunchasi va uni amalga oshirishdagi chora-tadbirlar tizimi //Aktualniye voprosi obespecheniya prav jenʃin i predotvraʃyueniya nasiliya V semye V Uzbekistane. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 34-38.

<sup>8</sup> Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг "сурункали алкогелизм, гиёхвандлик ёки заҳарвандликка мутбало бўлган шахслар" ни мажбурий даволашга юбориш фаолияти //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2. – №. 23. – С. 334-338.



5. O'roqov J. R. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning muammolari //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 21. – №. 4. – S. 44-50.